

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-oktyabr oylarida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **18667,9 mlrd. so'mni**, o'sish **36,1 %** ni;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **14857,0 mlrd. so'mni**, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **38,3 %** ni;
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **79,6 %** ni;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **21,4 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimizda korxonalar tomonidan **18667,9** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **36,1 %** ni tashkil etdi.

- Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **97,7** foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalar ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,7** foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,8** foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati **136,8 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **97,7 %**)

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati **102,3 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **0,4 %**)

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati **113,8 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **1,7 %**)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati **123,8 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **0,2 %**)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **80,9** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,4 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **18234,5** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,7 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **318,1** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,7 %** ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **34,4** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %** ni) tashkil etdi.




Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 60,1 % ulushini), Andijon shaharlari (17,3 %), Honobod shaharlari (4,1 %), Shahrixon (2,6 %), Andijon (2,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

I-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,4 %), Ulug'nor (0,5 %), Buloqboshi (0,7 %), va Paxtaobod (0,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2017 yilning


yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 128,9 % ga), Honobod (119,7 % ga) shaharlarida, Asaka (153,2 % ga), Jalaquduq (105,4 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **14857,1** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan **138,3 %**, jami sanoatdagi ulushi esa **79,6 %** ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

2-diagramma




Yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

4-diagramma



**Andijon viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

A.Ibroximov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-82-57